

**RAHMATILLA BARAKAYEV – OLIMNING HAYOT VA ILM
YO‘LLARIGA CHIZGILAR**

Ulug‘bek Hamdamov
filologiya fanlari doktori, professor

***Annotatsiya:** Maqolada professor Rahmatilla Barakayevning hayot va ilm yo‘llarida erishgan asosiy yutuqlariga nazar solingan. Shuningdek, olimning bolalar adabiyotini o‘rganish ilmida tutgan o‘rni, adabiyotshunoslik muammolariga yondashuv prinsipi, ilmiy mahorati bilan bog‘liq tahlillar amalga oshirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** bolalar adabiyoti, bolalar adabiyoti masalalari, ustoz-shogird munosabatlari, tarjima, bir til ichidagi tarjima, adabiy ta‘sir, bolalar adabiyoti ilmining vazifalari.*

Professor Rahmatulla Barakayev bugungi kunda o‘zbek bolalar adabiyoti tarixi va hozirgi o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot tamoyillari, adabiy aloqalar, tarjima tarixi va nazariyasi bo‘yicha taniqli mutaxassis hisoblanadi. Ayni paytda, u o‘zbek adabiyotshunosligining yuqorida nomlari sanalgan yo‘nalishlari bilan chegaralanib qolgani yo‘q: jadid adabiyoti, sovet o‘zbek adabiyoti, Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti masalalari bo‘yicha ham ilmiy maqolalar, tadqiqotlar muallifi hamdir. Shuningdek, olimning bolalar adabiyotiga bag‘ishlangan qator kitoblari, bolalar adabiyoti bo‘yicha chop etilgan darsliklari mavjud. Bundan tashqari, R. Barakayev jahon adabiyoti, xususan, jahon bolalar adabiyoti masalalariga ham qiziqadi, o‘rni-o‘rni bilan ularni o‘zbek bolalar adabiyoti bilan qiyoslaydi, xulosalar chiqaradi. Bir so‘z bilan aytganda, professor R. Barakayev bugun 70 yillik yubiley to‘yi arafasida ilmiy jamoatchilik qarshisida o‘z sohasining yirik bilimdoni sifatida namoyon bo‘lib turibdi.

Kechmishga bir nazar

Rahmatulla Barakayev 1954-yil 1-fevralda Buxoro viloyatining Vobkent tumanida tug‘ilgan. Otasi Baraka bobo madrasa ko‘rgan, mumtoz Sharq adabiyotini yaxshi bilgan inson bo‘lganidan uning bu fazilati yosh Rahmatullaga o‘tgan, deyish mumkin. Chindan ham Baraka bobo hayot yo‘lidagi u yoki bu masalalarni munosabat bildirarkan, Jaloliddin Rumiy, Sa‘diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Boborahim Mashrablarning turkiy va forsiydagi she‘rlaridan misollar keltirar, ularni izohlar, aytmoqchi bo‘lgan fikrini shu yo‘sin quvvatlab so‘zlar edi. Shofirkonda bo‘lib o‘tgan Barakayevlarga tegishli nevara to‘ylaridan birida ishtirok etgan atoqli navoiyshunos olim, O‘zbekiston qahramoni, professor Suyima G‘aniyeva bobo bilan gaplashib, Toshkentga qaytgach: “Men Rahmatulla adabiyotshunoslikka qayerdan qiziqib qolgan desam, buning asosiy sababi mulla Baraka bobo ekanlar-ku!” degan edi.

R. Barakayev 1971-75 yillarda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi Toshkent davlat pedagogika universiteti) ning o‘zbek

va qozoq filologiyasi fakultetida o‘qiydi. Yosh Rahmatullaning adabiyotga bo‘lgan alohida ishtiyoqini sezgan navoiyshunos olim Natan Mallayev uni 4-bosqichda o‘qib yurgan paytidayoq o‘zi mudirlik qilayotgan kafedra huzuridagi “Alisher Navoiy” o‘quv muzeyiga ishga oladi. Shunday qilib, Barakayevning ilmiy hayotdagi izlanishlari boshlanadi. Biroq hayot taqozosi uni yana Buxoroga yetaklaydi. Bo‘lajak adabiyotshunos besh yil mobaynida maktabda o‘quvchilarga adabiyotdan saboq beradi.

Olim taqdirining hozirgi O‘z FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bilan bog‘lanishi uning “Tarjimai holi”da shunday bayon etilgan: “Ilmga bo‘lgan qiziqishi uni baribir Toshkentga tortaveradi va 1980-yilgi mehnat ta‘tili paytida Toshkentga, Fanlar akademiyasining Til va adabiyot institutiga kelib, o‘zidan bir bosqich avval institutni tugallagan do‘sti Qurdosh Qahramonovdan “Bolalar adabiyoti” bo‘limida bir laborant o‘rni bo‘shligini bilib oladi. Q.Qahramonov uni o‘sha paytdagi bo‘lim mudirasi, yoshlarga juda mehri baland Malohatxon Abdurahmonova huzuriga olib kiradi. Rahmatullaning eski yozuvni bilishi, mumtoz adabiyotga qiziqishi balandligini sezgan opa bo‘limda bolalar adabiyotining 1917-yildan oldingi davrdagi holatini biladigan mutaxassis yo‘qligini aytib, XX asr boshlari davri bo‘yicha ilmiy izlanish olib borishga da‘vat qiladi va shu paytning o‘zidayoq “O‘zbek adabiyoti tarixi” bo‘limining mudiri, mashhur navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov suhbatiga olib kirib, domlaga tanishtiradi, ulardan ilmiy rahbar bo‘lish roziligini ham oladi. Shu bilan R.Barakayevning Til va adabiyot institutidagi faoliyati boshlanadi”.

Shunday qilib, R.Barakayev Buxorodagi oddiy maktab o‘qituvchiligidan Toshkentdagi professorlik darajasigacha bo‘lgan mazmunli umrini adabiyot va uning ilmi bilan bog‘lab yashab kelmoqda.

Barakayev – ilmiy rahbar

R. Barakayevning shogirdlari ham o‘zbek bolalar adabiyotining ko‘pdan ko‘p masalalari bo‘yicha dissertatsiyalar yoqlab, ilmiy ishlar olib borishadi, shuningdek, Respublikamizning turli o‘quv maskanlarida talabalarga adabiyotdan saboq berishadi. U ilmiy rahbar sifatida juda kuyunchak, xuddi palaponlarini himoya qilayotgan ota qushdek ularni katta hayotga yo‘llaydi, maslahatlar beradi, birgalikda kitoblar chiqaradi.

Olimning ilmiy rahbarligida Jo‘rayeva Fotima, Baxshillo Ashurov, Dilnavoz Xoliqova, Dilorom To‘rayeva, Zafar Mamatalimov, Dilrabo Igamuratova, Jahongir Lutfullayev, Shahlo Musayeva kabi olimlar o‘z ilmiy ishlarini himoya qilganlar. Shuningdek, ustozu shogirdlarning ilm yo‘lidagi hamkorligi hali-hanuz qizg‘in davom etmoqda.

Barakayev – ota

Olim to‘rt farzand – uch qiz va bir o‘g‘il otasi.

Farzandlarning barchasi oliy ma‘lumotli, katta qizi Bashoratxon ota yo‘lini tutgan, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘zbek tili va adabiyoti fakultetini tugallagan. Farzandlarni katta qilib, endi ilmiy ish harakatida.

Ikkinchi farzand – Sunnatulla Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining xalqaro huquq fakultetini bakalavriat bo‘yicha tugallagan, magistratura bosqichini Lill (Fransiya) universitetida o‘tagan.

Uchinchi farzand – Sabohatxon O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetini tugallagan. Nashriyotda ishlaydi.

To‘rtinchi farzand – Inobatxon Toshkent davlat rassomlik va dizayn institutini menejment yo‘nalishida tugallagan, bankda menedjer.

Barakayev – ilmiy kotib

Ilm kishisining ilm bilan bog‘liq boshqa masalalari ham ko‘p bo‘ladi. Shulardan biri, balki eng muhimlaridan biri – ilmiy faoliyatni kerakli yo‘nalishlar bo‘yicha yurishini ta‘minlashdir. Ilmiy kotiblik – shunday vazifalardan biri. Rahmatulla Barakayev Institut ilmiy kotibi sifatida 25 yil hormay-tolmay mehnat qildi. O‘n yildan ko‘proq vaqt mobaynida esa Ilmiy kengash kotibi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Necha-necha nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari uning kotibligida yoqlandi, ilmiy jamoatchilikka manzur bo‘ldi. Tabiiyki, bunday ishlarning ko‘pchilikka foydasi tegishi bilan birga, ular olimning vaqti va kuchini olib qo‘yadi. Agar Barakayev kotiblik qilmay, faqat ilm bilan shug‘ullanganda, bugungi kunda uning ilmdagi “bo‘y-basti” hozirgidan chandon baland bo‘lishi shubhasiz edi. Ne ajabki, busiz ham prof. R. Barakayev hozirda Respublikamizda bolalar adabiyoti bo‘yicha eng ko‘zga ko‘ringan, eng sermahsul olimlardan biri sanaladi.

Bolalar adabiyoti masalalariga bir nazar

Bugun dunyo yangilandi. Bas, shunday ekan, uni badiiy-estetik aks ettirish usullari ham yangilanishga ehtiyoj sezmoqda. Buni adabiyotimizning har odimida sezib, anglab turibmiz. Xuddi shunday, bolalar adabiyotida ham yig‘ilib qolgan talay muammolar bor. Kechagi kunni bolajonlarga ajoyib tarzda “ag‘darib” bergan ijodkorlarning aksariyati bugun hayotda yo‘q. Aytaylik, Zafar Diyor, Po‘lat Mo‘min, Quddus Muhammadiy, Xudoyberdi To‘xtaboyev, Farhod Musajonov, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon va boshqa ko‘plab taniqli nomlar o‘z davrining eng yaxshi ijodkori sifatida faoliyat yuritdilar. Bugun ham ana shunday ijodkorlarga ehtiyoj mavjud. Bas, shunday ekan, bunday ijodkorlarning turli janrlardagi bitiklarini haqqoniy baholashda bolalar adabiyoti ilmining, xususan, R.Barakayev va uning kabi boshqa mutaxassislarning ilmiy-asosli chiqishlari juda

ham zarurligini alohida qayd etish lozim. Axir, shu kecha-kunduzda “Bugun adabiy tanqid yo‘q” deya jar solishni yaxshi ko‘ramiz. Adabiy tanqid, ayni damda, bolalar adabiyotiga ham tegishli ekanini esa birov biladi, birov bilmaydi, ko‘pchilik esa xayoliga ham keltirmaydi. Holbuki, bolalar adabiyotini ilmiy baholash, halol tanqid prizmasidan o‘tkazish zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Xuddi shu vazifa soha mutaxassisleri zimmasiga tushib turibdi. Masalaga mana shu rakursdan boqar ekanmiz, bolalar adabiyoti tadqiqotchilari zarurati va xizmatlarini yaxshiroq his qilib boramiz.

Demak, bugunga kelib, bolalar adabiyotiga xos masalalardan biri jahon bolalar adabiyotidan tarjima va uning milliy adabiyotga ta’siri masalasidir. Masala avval ham bor bo‘lib, u prof. R.Barakayevning doimiy e’tibor markazida bo‘lib kelgan. Olim o‘zining “Nikolay Nosov va uning “Bilmasvoy”i haqida” nomli maqolasida yozadi: “N.Nosov asarlarining asosiy qismini bolalarning sevimli shoiri, uslubi ham muallif uslubiga mos keladigan, asarlari ham hajvga boy ijodkor – Po‘lat Mo‘min o‘zbek tiliga tarjima qilgan. U, dastlab, 1953-yilda “Vitya Maleev maktabda va uyda” qissasini, 1954-yilda esa shu qissa asosida yaratilgan “Ikki do‘st” pyesasini o‘zbek tiliga o‘girdi. “Bilmasvoy bilan do‘stlarining boshidan kechirganlari” (1958) va “Bilmasvoy Quyosh shahrida” (1964) asarlari tarjimasi esa shoir-tarjimon ijodida alohida o‘rin tutadi”.

Ko‘rinadiki, prof. R. Barakayev bolalar adabiyoti tarjimasi muammosini o‘rtaga tashlamoqda. Bu yerda olim kerakli adabiyotning tarjimasi o‘zbektillik bolalar uchun qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, ayni damda, bunday tarjimalar mutarjimning o‘zi uchun ham ijod olamida yangidan yangi ufqlar ochishi mumkinligiga urg‘u bermoqda. Olim yozadi: “Avvalo, shuni ta’kidlash kerakki, ijodining Nikolay Nosov ijodi bilan hamohangligi – hajviy uslub ushbu asarlar tarjimasida Po‘lat Mo‘minga qo‘l keldi. Chunki asl nusxa uslubini topa olish tarjimada asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, tarjimon o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan o‘rinli foydalana olganligi ham Bilmasvoy haqidagi asarlar uzoq yillar davomida o‘zbek bolalarining eng sevimli kitoblariga aylanishiga sabab bo‘ldi. Masalaning yana bir, adabiy ta’sir tomoni ham bor. Odatda bir yaxshi asarni tarjima qilish ikkinchi bir asar yaratilishiga sabab bo‘ladi. Po‘lat Mo‘minning “Qovoqvoy va Chanoqvoy”, “Suqatoy-Konfetvoy” nomli ertak-pyesalari, shoirning o‘zi tan olib aytishicha, Bilmasvoy haqidagi asarlar ta’sirida yaratilgan ekan”.

Chindan ham, adabiy ta’sir – adabiyotshunosligimizning muhim masalalaridan biri. Gyotening “Faust” asari tarjimasi Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni”, Dantening “Ilohiy komediya”si tarjimasi esa Abdulla Oripovning “Jannatga yo‘l” dostonining yaratilishiga turtki, ta’sir bo‘lganini yodga olsak, ko‘p narsa oydinlashadi. Xuddi shunday adabiy ta’sir hodisasi bolalar adabiyotida ham yuz

bergan: Bilmasvoy obrazi nafaqat Po‘lat Mo‘min, balki o‘zbekning boshqa bir katta yozuvchisi – O‘zbekiston xalq yozuvchisi X. To‘xtaboyev ijodiga ham ta’sir qilganidan xabar beradi olim: “X.To‘xtaboyevning mashhur “Sehrli qalpoqcha” nomli qissasida ham Bilmasvoy haqidagi asarlar ta’siri yaqqol sezilib turadi. Zero, Bilmasvoyning ko‘pgina ko‘rgilik va sarguzashtlariga sehrli tayoqcha sabab bo‘lsa, Hoshimjonning sayohat va kechinmalari sehrli qalpoqcha vositasida amalga oshadi. Hatto har ikkala adibning asar oxiridagi “bilimsiz hech narsaga erishib bo‘lmaydi”, degan xulosasi ham hamohangdir. Yana bir qiziq tashqi o‘xshashlikka e’tibor beraylik: “Bilmasvoy va do‘stlarining sarguzashtlari” dastlab ertak-qissa edi, keyingi ikki kitob esa roman-ertak shaklida maydonga keldi, “Sehrli qalpoqcha” ham dastlab qissa edi, keyin esa “Sariq devni minib” va “Sariq devning o‘limi” romanlari paydo bo‘ldi”.

Faqat bular emas, prof. R. Barakayev Bilmasvoy to‘g‘risidagi asarlar ta’sirida kichkintoylarining sevimli jurnallari – “G‘uncha” va “Gulxan”da “Bilarjonning sarguzashtlari” nomli suratli sayohat-ertaklar rubrikasi paydo bo‘lganiga ham urg‘u beradi. Demak, olim bitta asar va uning qahramonining o‘zbek adabiyotidagi ijodiy ta’siri tadrijini sinchkovlik bilan kuzatgan va kerakli ilmiy xulosalar chiqargan.

Aytilganlardan oydinlashdiki, olim bolalar adabiyoti bilan bog‘liq bir necha masalalarni maydonga tashlamoqda. Bularning birinchisi – tarjima, ikkinchisi – muqobil tarjimada asliyat uslubini saqlash, uchinchisi – tarjimadan ta’sirlanib yangi ijod mahsuliga qo‘l urish.

Bundan tashqari, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Munavvar qori, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Hamza Imonberdiyev, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab va boshqa ko‘plab shoir hamda millat oydinlarining turli yo‘nalishdagi faoliyatlari prof. Rahmatulla Barakayevning tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qilganligini alohida ta’kidlamoq joiz.

R. Barakayev bolalar adabiyotini tekshirar ekan, hamisha masalaning tubiga nazar tashlashga harakat qiladi. Chunonchi, u Avloniyning “Turkiy Guliston” asariga xamirturish bo‘lgan g‘oyalarni izlaydi va “Guliston” – “Shavqi Guliston” – “Turkiy guliston” nomli maqola yozadi. Demak, olim Avloniy asarining tug‘ilishini shunday tadrijda ko‘radi: “Guliston” – “Shavqi Guliston” – “Turkiy guliston”. Olim yozadi: “Kitobning “Dar bayoni axloqi hamida va siyari marziyya” (“Maqtoqli xulqlar va yoqimli xislatlar bayonida”) deb nomlangan ikkinchi bobida hayo, tavoze’, adab, shafqat, saxovat, karam, shijoat, sabr, matonat va boshqa yaxshi xulqlarga ta’rif beriladi va hikoyatlar keltiriladi. “Dar bayoni axloqi mazluma” (“Yaramas xulqlar bayonida”) deb nomlangan uchinchi qismida johillik, hasad, tama’girlik, baxillik, xasislik, xiyonat, aldanchilik, ko‘zbo‘yamachilik kabi qabih xulqlarga ta’rif beriladi. Turkiy adabiyotlardagi pandnoma janriga mansub

asarlardan esa Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini tilga olish kifoya. “Mahbub ul-qulub”ning “Hamida af’ol va zamima xisol xosiyatida” deb nomlangan ikkinchi qismida inson tabiatidagi yaxshi va yomon sifatlar xususida fikr yuritiladi. Demak, Avloniy mumtoz adabiyotimizdagi pandnoma janriga mansub ko‘plab asarlardan xabardor bo‘lgan va ulardan ta’sirlanib, o‘ziga xos bir pandnoma yaratgani shubhasizdir”

Ko‘rinadiki, “Turkiy Guliston” o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolgani yo‘q. Ungacha Shayx Sa’diyning “Guliston”i turkiyga bir necha marta tarjima bo‘lgan, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”i yozilgan va, nihoyat, Avloniyning o‘ziga xos “Turkiy gulistoni” dunyoga kelgan.

Yana bir masala – “Bir til ichidagi tarjima”ga tegishlidir. Xo‘sh, bugungi bolalarga Navoiy asarlarini qay tarzda yetkazmoq kerak? Masala Rahmatulla Barakayevni ham qiziqtiradi. U o‘z maqolalarida muammoga yechim qidiradi. Yechimni “Bir til ichidagi tarjima”dan topadi. Olim yozadi: “Mumtoz adabiyot namoyandalari asarlarini u qadar yaxshi tushunmaslik faqat o‘zbek adabiyotigagina tegishli hodisa emas. Masalan, bugungi ingliz kitobxonlari Vilyam Shekspir asarlarini asliyatda o‘qib tushinishi ayni o‘zbek kitobxonlari Navoiyni tushinishi singaridir. Shu boisdan ham zamonaviy ingliz adabiyotshunoslari Shekspirning deyarli barcha mashhur dramatik asarlarini mazmuninigina saqlab qolgan holda bolalarga moslashtirilib, hajman mo‘jaz asarlar sifatida qayta yaratganlar. Demak, bu tajriba jahon adabiyoti uchun yangilik emas, balki ana shu paytda barcha xalqlar kitobxonlariga yuqorida tilga olganimiz – “bir til ichidagi tarjima” tushunchasi yordamga keladi”. (“Navoiyni anglash mashaqqatlari” nomli maqolasidan). Demak, bugun bolalarga Navoiyni tushuntirish uchun “bir til ichidagi tarjima”ga qo‘l urmoq va ulug‘ shoir asarlari mazmunini saqlagan holda, uning shaklini soddalashtirib berish yaxshi natijalarga olib keladi. Shu o‘rinda bir mulohazani aytib o‘tish kerakdir, ehtimol: u ham bo‘lsa, Navoiy asarlaridan qilingan “bir til ichidagi tarjima”ning asliyat ham yonma yon tarzda berilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zero, yosh o‘quvchi Navoiy asarlari ruhini asliyatdan ham o‘qib, his qilsin.

Olim bolalar adabiyotidagi ijodiy ta’sir muammosi borasidagi ishlarini davom ettirib, Abdulla Avloniyning tarjimonlik mahorati”, “Hamza Hakimzoda Niyoziyning adabiy-pedagogik asarlarida an’anaviylik va badiiy mahorat muammolari” kabi qator maqolalarini yozadi. Bu maqolalarda tadqiqotchi nafaqat o‘zbek adabiyotini, ayni damda, xorij adabiyotini, xususan, rus va Yevropa adabiyotini ham yaxshi bilishini namoyish etadi. “Abdulla Avloniy Lev Tolstoyning o‘n bir kichik asarini tarjima qilgan bo‘lib, ulardan quyidagi to‘rttasi ushbu satrlar muallifi tomonidan yangi topilgan... E’tibor berilsa, Avloniy tarjima qilgan to‘rtala kichik asar ham, aslida, Lev Tolstoy Ezop masallari asosida qayta yaratgan

asarlardir” deb yozadi u Avloniyning tarjimonlik mahoratiga bag‘ishlangan maqolasida. Demak, olim Avloniy o‘g‘irgan to‘rt masalning genezisi bilan qiziqar ekan, u ishni, avvalo, rus adabiyotining daholaridan biri – L.N. Tolstoy ijodini jiddiy o‘qib o‘rganishdan boshlaydi. Bu o‘rganish uni masallarning tub ildizi yunon adabiyoti, xususan, Ezop masallariga olib boradi. Natijada, topilgan dalillarni bir-biriga mantiqiy bog‘lab, ilmiy-asosli xulosalar chiqarish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa, chin tadqiqotchi olim suyanishi zarur bo‘lgan ilmiy yondashuv prinsipidir.

Bugun professor Rahmatilla Barakayev va u singari boshqa olimlar – bolalar adabiyotining zahmatkash tadqiqotchilari zimmasida juda katta ish-vazifa turibdi, u ham bo‘lsa, yangilangan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-psixologik davrda yaratilayotgan bolalar adabiyotining saragini sarakka, puchagini puchakka ajratgan holda, davr manzarasini chizib berish, yo‘nalishlarni tasniflash, yozuvchi, shoir va dramaturglarning ijodiy portretlarini yaratish bilan bog‘liq bo‘lib, bunday mashaqqatli, ayni zamonda, sharafli ishda ularga sog‘lik, kuch quvvat va, albatta, muvaffaqiyat tilab qolamiz!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – 400 bet.
2. Barakayev R. Jonajonim, she‘riyat (80-yillar o‘zbek bolalar she‘riyati haqida ba‘zi qaydlar). – Toshkent: Cho‘lpon, 1997. - 88 bet.
3. Barakayev R. O‘zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi. – Toshkent: Fan, 2004. – 160 bet.
4. Barakayev R. Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2014 (hammuallif); Tursunboy Adashboyev fenomeniga bir nazar. – Toshkent: Akademnashr, 2017 (qayta nashr, hammuallif).
5. Barakayev R. Bolalar adabiyoti. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – Buxoro: Durdon, 2019. - 428 bet (hammuallif).